


## IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 865,1 mlrd. so‘m miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 112,6 % ni, shundan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 5 007,9 mlrd. so‘mni (jamiga nisbatan ulushi 56,5 %) tashkil etdi.


### 2024-yil yanvar -sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari




2024- yilning yanvar- sentabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘pi, ya‘ni 52,2 % viloyatning 4 ta hududi hissasiga to‘g‘ri keladi, jumladan, Urganch shahri 21,7 %, Urganch tumani 11,3 %, Qo‘shko‘pir tumani 11,0 %, Xiva shahri 8,2 %.

Viloyatning ayrim tumanlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Jumladan, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Xiva shahri 2,9 m. Yangibozor tumani 188,2 %, Gurlan tumani 155,1 %, Qo‘shko‘pir tumanida 134,0 %, ga o‘shish kuzatildi.

### Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



### Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (% da)



2024- yilning yanvar–sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Xiva shahrida 7347,3 ming so'm (290,8%), Yangibozor tumanida 6536,5 ming so'm (184,5 %) va Gurlan tumanida 2779,1 ming so'm (152,2 %) darajada qayd qilindi.


**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**  
(2024- yil yanvar – sentabr oylarida)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>8 865,1</b>	<b>112,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>778,2</b>	<b>66,1</b>	<b>8,8</b>
byudjet mablag'lari	294,6	47,1	3,3
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	130,3	175,6	1,5
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	31,5	-	0,4
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	321,8	67,3	3,6
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>8086,9</b>	<b>120,7</b>	<b>91,2</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	1467,3	71,2	16,5
aholi mablag'lari	1775,3	99,9	20,0
xorijiy investitsiya va kreditlar	4686,1	172,6	52,9
<i>shundan:</i>			
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya	1187,2	105,1	13,4
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	158,2	103,2	1,8

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda tarmoqlar kesimida eng katta ulush xorijiy investitsiya va kreditlar 52,9 foizni, aholi mablag'lari 20,0 foizni, korxonaning o'z mablag'lari 16,5 foizni tashkil qildi.


Eng kam ulush tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari 0,4 foizni, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 1,5 foizni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari




Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari 2023- yil yanvar-sentabr oylarida mos ravishda 15,7 % va 84,3 % ni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkichlarning ulushlari o‘tgan yilning shu davrida 8,8 % va 91,2 % ni tashkil qildi.

### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari (ulushi % da)



2023- yilning shu davri bilan solishtirganda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar ulushi 2,7 %, va mos ravishda Respublika byudjeti mablag‘larining ulushi 5,1 % punktga kamaygan.

### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari (ulushi, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha korxonaga o‘z mablag‘lari 16,5 foizni (2023-yil yanvar-sentabrda 24,6 foiz), aholi mablag‘lari 20,0 foizni (2023-yil yanvar-sentabrda 24,3 foiz), xorijiy investitsiya va kreditlar 52,9 foizni (2023-yil yanvar-sentabrda 32,3 foiz), tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 1,8 foizni (2023-yil yanvar-sentabrda 3,1 foiz) tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalarida eng katta ulush xorijiy investitsiya va kreditlar 52,9 foizni, eng kam ulush tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 1,8 foizni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


Shahar va tumanlar nomi	Jami investitsiyalar mlrd. so'm	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (mlrd. so'm)					
		Respublika byudjeti	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jang'armasi	Korxonalar va aholi mablag'i	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditorlar	Tiklanish va taraqqiyot jang'armasi
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>8865,1</b>	<b>294,6</b>	<b>130,4</b>	<b>1467,3</b>	<b>1933,4</b>	<b>5007,9</b>	<b>31,5</b>
<i>Shahar va tumanlar:</i>							
Urganch sh.	1920,2	103,8	27,6	561,5	185,8	1010,1	31,5
Xiva sh.	728,8	19,4	3,1	41,1	81,4	583,8	-
Bog'ot	320,2	17,7	27,7	99,3	99,1	76,3	-
Gurlan	439,4	18,4	2,1	29,7	126,8	262,3	-
Qo'shko'pir	974,4	24,2	44,4	108,4	132,3	665,0	-
Urganch	1002,6	5,2	0,3	152,6	287,1	557,3	-
Hazorasp	499,3	7,3	7,3	71,8	260,9	151,9	-
Tuproqqal'a	495,8	39,1	0,4	73,0	110,6	272,8	-
Xonqa	394,3	10,1	0,1	99,0	185,8	99,3	-
Xiva	645,4	6,3	6,3	45,3	94,7	492,9	-
Shovot	390,1	6,7	6,1	128,4	120,9	128,0	-
Yangiariq	446,6	20,6	2,2	41,7	122,7	259,4	-
Yangibozor	607,9	15,8	2,7	15,5	125,2	448,8	-

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2024- yilning yanvar–sentabr oylarida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi**

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
<b>Jami:</b>	<b>8865,1</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	2320,7	26,2
Ishlab chiqarish sanoati	2544,1	28,7
Qurilish	239,5	2,7
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni taʼmirlash	588,7	6,6
Tashish va saqlash	987,3	11,1
Taʼlim	121,4	1,4
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	-	-
Boshqa faoliyat turlari	2063,4	23,3

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 66,0 % dan ortigʻi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yoʻnaltirildi: ishlab chiqarish sanoati (28,7), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi (26,2 %) va tashish va saqlash sohasi (11,1%) ni tashkil qildi.

### 2024- yilning yanvar – sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi



- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
- Ishlab chiqarish sanoati
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta‘mirlash
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Ta‘lim

### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2024- yilning yanvar–sentabr oylarida 5007,9 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 397,4 mln. AQSH dollar) yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 158,8 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahrida (20,2 %), Qo‘shko‘pir tumanida (13,3 %) va Xiva shahrida (11,7 %) kuzatildi.



**Xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish,  
kreditlarni qo‘shgan holda**

Shahar va tumanlar nomi	Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirildi mlrd. so‘m		Xorijiy investitsiyalar, nisbatan % da	
	jami	shu jumladan, kreditlar	jamiga	asosiy kapitalga investitsiyalar


<b>Xorazm viloyati</b>	<b>5 007,9</b>	<b>3 820,7</b>	<b>100,0</b>	<b>56,5</b>
------------------------	----------------	----------------	--------------	-------------

*shahar va tumanlar:*

Urganch sh.	1 010,1	516,2	20,2	11,4
Xiva sh.	583,8	528,3	11,7	6,6
Bog‘ot	76,3	76,3	1,5	0,9
Gurlan	262,3	262,3	5,2	3,0
Qo‘shko‘pir	665,0	647,6	13,3	7,5
Urganch	557,3	519,5	11,1	6,3
Hazorasp	151,9	65,9	3,0	1,7
Tuproqqal‘a	272,8	159,4	5,4	3,1
Xonqa	99,3	32,5	2,0	1,1
Xiva	492,9	492,9	9,8	5,6
Shovot	128,0	128,0	2,6	1,4
Yangiariq	259,4	-	5,2	2,9
Yangibozor	448,8	391,6	9,0	5,1

Viloyatda xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 56,5 % ni tashkil qildi. Eng ko‘p ulushlar Urganch sh. (11,4 %), Qo‘shko‘pir tumani (7,5 %), Xiva sh. (6,6 %), Urganch tumani (6,3 %) va Xiva tumani (5,6 %) ga to‘g‘ri keladi. Eng kam ulush Bog‘ot (0,9 %), Xonqa tumani (1,1 %) va Shovot tumanlariga (1,4 %) to‘g‘ri kelmoqda.

### Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd.so'm)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiy hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 3,6 % yoki 321,8 mlrd so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 56,5 % yoki 5007,9 mlrd so'mni, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 1 187,2 mlrd so'mni tashkil qildi.

#### Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

2024- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 892,2 ming kv.m. bo'lgan 3093 turar joy va yotoqxonalar (2023- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 98,2 %) shu jumladan qishloq joylarida 811,8 ming kv.m. (102,5 %) uy-joy foydalanishga topshirildi. Turar joy qurilishiga o'zlashtirilgan investitsiyalar 1 238,3 mlrd. so'mni yoki jami investitsiyalardagi ulushi 14,0 % ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar– sentabr oylarida ishga tushirilgan turar joylar

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Barcha moliyalashtirish hisobidan:</i>			
	<i>Ishga tushirildi</i>		<i>Ulardan yakka tartibdagi turar joylar</i>	
	<i>ming kv.metr</i>	<i>2023- yil mos davriga nisbatan % da</i>	<i>ming kv.metr</i>	<i>2023- yil mos davriga nisbatan % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>892,2</b>	<b>98,2</b>	<b>892,2</b>	<b>98,2</b>
<i>Shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	51,1	57,5	51,1	57,5
Xiva sh.	29,3	104,4	29,3	104,4
Bog‘ot	54,8	89,9	54,8	89,9
Gurlan	71,2	101,4	71,2	101,4
Qo‘shko‘pir	67,0	101,7	67,0	101,7
Urganch	172,1	126,5	172,1	126,5
Hazorasp	96,5	110,7	96,5	110,7
Tuproqqal‘a	45,1	103,3	45,1	103,3
Xonqa	62,1	72,8	62,1	72,8
Xiva	49,9	84,3	49,9	84,3
Shovot	73,1	106,6	73,1	106,6
Yangiariq	68,3	104,6	68,3	104,6
Yangibozor	51,7	104,3	51,7	104,3

**Yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy obyektlarni  
ishga tushirish**

	<i>Barcha moliyalashtirish hisobidan:</i>			
	<i>Ishga tushirildi</i>		<i>2023- yilning mos davriga nisbatan % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylardi</i>	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylardi</i>
Turar joylar umumiy maydoni, ming kv.metr	892,2	811,8	98,2	102,5
ulardan:				
yakka tartibdagi turar joylar	892,2	811,8	98,2	102,5
Namunaviy loyihalar asosida qurilgan yakka tartibdagi turar joylar	-	-	x	x
Poliklinikalar (QVPlarni qo‘shgan holda), qatnov	750	-	x	x
Umumta‘lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, o‘quvchi o‘rni	2274	878	x	x
Suv tarmog‘i, km	202,2	198,8	88,5	92,8
Gaz tarmog‘i, km	-	-	-	-


Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida 133,5 mlrd. so‘m investitsiya o‘zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida investitsiya mablag‘lari o‘zlashtirilmagan.

## Qurilish ishlari


2024- yil yanvar- sentabr oylarida 7 095,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari oʻsish surʻati



Qurilish ishlari boʻyicha yuqori oʻsish surʼatlari quyidagi shahar va tumanlarda: Tuproqqalʼa tumani 136,5 %, Xiva shahrida 117,3 % va Yangiariq tumanida 115,3 %, oʻsish kuzatildi.

### Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi (ming soʻmda)




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

	<i>yanvar–sentabr</i>	
	2023- y.	2024- y.
<b>Qurilish ishlari, mlrd. so‘m</b>	<b>6 065,6</b>	<b>7 095,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	226,7	250,8
nodavlat	5 838,9	6 844,5

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 6 844,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,5 % ni (2023- yil yanvar-sentabriga nisbatan o‘shir sur‘ati 117,2 %) tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)

- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik qurilish obyektlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Qurilish ishlari umumiy hajmining 75,9 %i binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, 20,7 %i fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 3,5 %i ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 88,0 %i yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish hajmiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari mulkchilik shakllari bo'yicha

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Jami, mlrd.so'm</i>	<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha, jami hajmga nisbatan % da</i>	
		<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>7 095,3</b>	<b>3,5</b>	<b>96,5</b>
Urganch sh.	943,7	10,2	89,8
Xiva sh.	363,3	3,3	96,7
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	233,6	15,1	84,9
Gurlan	252,6	2,9	97,1
Qo'shko'pir	290,0	2,1	97,9
Urganch	671,6	4,2	95,8
Hazorasp	362,3	1,1	98,9
Tuproqqal'a	150,6	12,8	87,2
Xonqa	402,7	1,8	98,2
Xiva	514,2	1,8	98,2
Shovot	248,4	2,5	97,5
Yangiariq	234,7	2,0	98,0
Yangibozor	236,9	6,3	93,7

**Shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)**

	<i>Qurilish ishlari, xizmatlar jami</i>	<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari:</i>		
		<i>Bino va inshootlar qurilishi</i>	<i>Fuqarolik qurilishi obyektlari</i>	<i>Ixtisos- lashtirilgan qurilish ishlari</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>7 095,3</b>	<b>5 381,8</b>	<b>1 465,8</b>	<b>247,7</b>
Urganch sh.	943,7	449,7	423,2	70,9
Xiva sh.	363,3	190,3	161,8	11,2
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	233,6	133,2	94,0	6,4
Gurlan	252,6	180,5	69,1	3,0
Qo'shko'pir	290,0	242,9	41,3	5,8
Urganch	671,6	430,7	181,3	59,5
Hazorasp	362,3	283,3	52,7	26,3
Tuproqqal'a	150,6	119,7	30,5	0,5
Xonqa	402,7	312,4	82,3	7,9
Xiva	514,2	332,0	173,0	9,2
Shovot	248,4	232,1	13,5	2,7
Yangiariq	234,7	188,7	40,0	5,9
Yangibozor	236,9	211,0	25,5	0,4

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy qismi bino va inshootlar qurilishi (5 381,8 mlrd. so'm) ga to'g'ri kelib, viloyat umumiy hajmida 75,9 %ni tashkil qildi. Shu bilan birga, fuqarolik qurilishi (1 465,8 mlrd. so'm) ob'ektlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari viloyat umumiy hajmining 20,7%ni hamda ixtisoslashtirilgan qurilish (247,7 mlrd. so'm) ishlari 3,5% ni tashkil etdi.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar** – bu real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, er maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarga** - barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

**Investorlar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat sub'ektlari hisoblanadi.

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** – bu korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

**Buyurtmachilar** – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o'zi, shuningdek investor tomonidan amaldagi korxonalar, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko'rsatishlari mumkin. SHu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa aralashmasliklari lozim.

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarini montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.